

**BOSHLANG'ICH SINIF MATEMATIKA DARSLARIDA  
O'QUVCHILARNING MATEMATIK KOMPETENSIYALARINI  
TAKOMILLASHTIRISH**

**Abduhakimova Zarnigor Abdurayim qizi**

Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (Boshlang'ich ta'lim)

**Annotatsiya:** Boshlang'ich sinf matematika darslarida o'quvchilarning matematik kompetensiyalarini rivojlantirish haqida to'xtalib o'tildi.

**Kalit so'zlar:** Davlat ta'lim standarti, matematika, tayanch va fanga oid kompetensiya, kommunikativ kompetensiya.

“Mamlakatimizda boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish umuman maktab matematika kursini o'zlashtirishning dastlabki bosqichi sifatida qaraladi. Shu sababali boshlang'ich sinflarda ishlashda o'rta maktabda matematika o'qitishda ko'zda tutiladigan umumiy masalalarni hisobga olish va bu masalalarni hal etishda boshlang'ich ta'limning ahamiyatini to'g'ri baholash kerak. boshlang'ich ta'limning muhim masalalaridan biri o'quvchilarda ongli va mustahkam hisoblash malakalarini shakllantirish edi va shunday bo'lib qoladi. o'quvchilarga egallangan bilim, o'quv va malakalarini turli xil sharoitlarda qo'llanishga o'rgatishni o'qitishning maxsus masalalari sifatida qarash kerak. Bu – o'quvchilarni politexnik tayyorgarligiga qaratilgan ishning boshlanishidir. shu bilan birga bilimlarning qo'llanishi ham bolalarning o'quv ishlari samaradorligini oshirishning muhim vositalaridan biridir. bilim, o'quv va malakalarning to'la qiymatli o'zlashtirishiga ularning o'zgaruvchi sharoitlarda mustaqil qo'llanilishi natijasidagina erishish mumkinligini psixologlar isbotlashdi. bolalarning maktabda boshlang'ich sinflardan keyingi sinfga o'tishiga albatta vujudga keladigan qiyinchiliklar ko'p darajada aynan shu asosda bartaraf etilishi mumkin.

Matematika bilan shug'ullanish faqat xotira va tafakkurni shakllantirib qolmay, balki bolalarning mehnat tarbiyasi maktabi ham bo'ladi. u mehnat qilishga odat qilishni va mehnatga ehtiyojni tarbiyalash bo'yicha doimiy sistemali ishlash uchun material beradi, tafakkur intizomini va mehnatni aniq tashkil etishni, fikrning bir joyga to'planishini, aniqlikni talab qiladi” (N.U. Bikbayeva, R.I. Sidelnikova, G.A. Adambekova Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi. -T.: O'qituvchi, 1996. s-4)

Umumiy o'rta ta'limning Davlat Ta'lim standarti va o'quv dasturi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi 187-son “Umumiy o'rta ta'lim va o'rta maxsus kasb – hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida”gi qarori bilan tasdiqlangan umumiy o'rta ta'limining davlat ta'lim standarti hamda umumiy o'rta ta'limning boshlang'ich sinflari uchun matematika fani bo'yicha malaka talablari asosida tuzilgan bo'lib, Xalq ta'limi vazirining 2017-yil 3-iyundagi “Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standartlari talablari asosida takomillashtirilgan o'quv dasturlarini tasdiqlash va amaliyotga joriy etish to'g'risida”gi 190-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan va umumiy o'rta ta'lim maktablarining 1-4 sinflari uchun amaliyotga joriy etiladi.

Davlat ta'lim standartining maqsadi-umumiy o'rta ta'lim tizimini mamlakatda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, rivojlangan xorijiy mamlakatlarning ilg'or tajribalari hamda ilm-fan va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan holda tashkil etish, ma'naviy barkamolva intellektual rivojlangan shaxsni tarbiyalashdan iborat. Davlat ta'lim standarti quyidagi tarkibiy qismlardan iborat: umumiy o'rta ta'limning tayanch o'quv rejasi; umumiy o'rta ta'limning o'quv dasturi; umumiy o'rta ta'limning malaka talablari; baholash tizimi.

Boshlang'ich ta'limning matematika fani o'quv dasturi o'quvchilarda kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan Davlat ta'lim standarti talablaridan kelib chiqib tuzildi. Ushbu o'quv dasturida boshlang'ich sinf o'quvchilarida shakllantiriladigan tayanch va fanga oid kompetensiyalar (Kompetensiya – mavjud bilim, ko'nikma va malakalarni kundalik faoliyatda qo'llay olish qobiliyati)

kiritilgan. Shuningdek, me'yoriy hujjatlarni yuritishda tayanch va fanga oid kompetensiyalar quyidagicha yozilishi tavsiya qilinadi:

TK-tayanch kompetensiyalar:

1. TK1-kommunikativ kompetensiyasi
2. TK2-axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi
3. TK3-o'zini o'zi rivojlantirish kompetensiyasi
4. TK4-ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi
5. TK5-milliy va umummadaniy kompetensiyasi
6. TK6-matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyasi

FK-fanga oid kompetensiyalar:

1. FK1-matematika mazmuniga oid umumiy kompetensiya
2. FK2-kognitiv kompetensiya.

Matematika fanidan 1-sinf o'quvchilarida shakllantiriladigan tayanch kompetensiya elementlari:

Kommunikativ kompetensiya :

Matematika faniga oid atamalarni to'g'ri talaffuz etish; o'z fikrini aniq ifodalay olish; Matematikaga oid turli axborotlarni tinglab, ko'rib tushunish; sodda matematik matn ma'nosini so'zlab bera olish.

Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi:

Darslik va boshqa manbalardan foydalana olish; ustunli'chiziqli va doiraviy diagrammalar ,jadvallar ,chizmalar ko'rinishida berilgan statistik ma'lumotlarni o'qiy olish, tushunish.

O'zini o'zi rivojlantirish kompetensiyasi:

O'qituvchi bilan birgalikda o'quv masalani topa olish, ifodalay olish, qismlarga ajrata olish; O'qituvchi bilan birgalikda o'quv faoliyatini natijasini tahlil qilish ,yo'l qo'yilgan xato va noaniqliklarni topa olish va ularni tuzata olish.

Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi:

Boshqalar fikrini tinglab, tushuna olish va o'z fikrini himoya qila olish; atrofdagilar bilan o'zaro muloqot chog'ida odob-axloq qoidalariga rioya qila olish va guruhda ishlay olish.

Milliy va umummadaniy kompetensiya:

Hodisalarni matematik tilda ifodalash usullaridan foydalana olish va bu usullar samarali ekanligini tushuna olish; milliy bayramlarimizga oid sana va vaqtlarni bilish, ularni kundalik hayotda qo'llay olish.

Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyasi:

Aniq hisob-kitoblarga asoslangan holda shaxsiy rejalarini tuza olish; murakkab bo'lmagan hisoblashlarda hisoblash vositalaridan foydalana olish.

1-sinf matematika darsligida berilgan har bir bo'lim yuzasidan o'quvchilarda o'fanga oid kompetensiya elementlarining shakllanishi: 1-bo'lim. "Narsalarning to'plamlari" Matematika mazmuniga oid umumiy kompetensiya: o'quvchilar narsalarning xossalari bo'yicha taqqoslay oladi va tartibga soladi, narsalar juftliklarini tuzib, to'plamlarni soni bo'yicha taqqoslay oladi va natijani "ko'proq",

"kamroq", "qancha bo'lsa shuncha", "soni bir xil", "bir nechta ko'p", "bir nechta kam" so'zlari bilan ifodalay oladi. Kognitiv kompetensiya: o'rganilgan matematik tushunchalar va algoritmlarni o'quv jarayoni hamda kundalik vaziyatlarda qo'llay oladi. 2-bo'lim. "11 dan 100gacha bo'lgan sonlar. Geometrik shakllar" Matematika mazmuniga oid umumiy kompetensiya: 0 dan 100 gacha bo'lgan nomanfiy butun sonlarni o'qiy oladi, yoza oladi, to'g'ri va teskari tartibda sanay oladi, burchaklarning asosiy turlarini (to'g'ri, o'tkir, o'tmas burchaklar) tasavvur qila oladi, solishtira oladi va tasvirlay oladi, ko'pburchaklarni (uchburchak, to'rtburchak) tasavvur qila oladi, tasvirlay oladi. Kognitiv kompetensiya: o'z fikrini ifodalay oladi, boshqalar fikrini tinglab, tushuna oladi. 3-bo'lim. "Geometrik shakllar. Matnli masalalar" Matematika mazmuniga oid umumiy kompetensiya: yassi (nuqta, kesma, burchak) figuralarni tasavvur qila oladi, taniy oladi va nomlay oladi, nomli kattaliklar (massa, sig'im) ni o'qiy oladi va yoza oladi, kattaliklarga oid kundalik hayot bilan bog'liq bo'lgan masalalarni arifmetik usulda yecha oladi. Kognitiv

kompetensiya :o'qituvchi bilan hamkorlikda o'quv va amaliy masaladagi maqsadni ifodalay oladi,o'z fikrini ifodalay oladi. 4-bo'lim.”Geometrik shakllar.Mantiqiy tushunchalar” Matematika mazmuniga oid umumiy kompetensiya:real obyektlarni geometrik figuralar modellari bilan bog'lay oladi,nomli kattaliklar(uzunlik,masofa)va ular orasidagi munosabatlardan (metr,detsimetr,santimetr)foydalanib ,kattaliklarni o'qiy oladi vayoza oladi,kattaliklarga oid kundalik hayot bilan bog'liq bo'lgan masalalarni arifmetik usulda (2 qadamli)yecha oladi. Kognitiv kompetensiya :masalalar yechishda mantiqan to'g'ri fikr yurita oladi,mantiqiy noto'g'ri natijalarni aniqlay oladi,misol va qarshi misol tuza oladi ,o'quv masalasini qismlarga ajrata oladi.5-bo'lim.”Sonli ifodalar.Jadvallar.Geometrik shakllar” ” Matematika mazmuniga oid umumiy kompetensiya:2 arifmetik amalli (qavssiz)sonli ifodaning qiymatini hisoblay oladi,geometrik obyektlar o'lchamlarini ,masofalarni chamalay oladi, murakkab bo'lmagan jadvallar ko'rinishida berilgan ma'lumotlarni o'qiy oladi va tayyor jadvallarni to'ldira oladi.Kognitiv kompetensiya:o'rganilgan matematik tushunchalar,faktlar va algoritmlarni sodda o'quv vaziyatlarda qo'llay oladi va yangi bilimlarni hosil qila oladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining matematika faniga oid har bir kompetensiyalarni takomillashtirib borish dars jarayonida o'qituvchining pedagogik mahorati asosida takomillashtirib boriladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. N.U.Bikbayeva, R.I.Sidelnikova,G.A.Adambekova Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi.-T.: O'qituvchi, 1996.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi “Umumiy o'rta ta'lim va o'rta maxsus , kasb –hunar ta'limining davlat ta'lim standartlari tasdiqlash to'g'risida “gi 187-son qarori